

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlis bayonlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017-2018 yillar davomida respublika hududlariga tashriflari davomida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi borasida tijorat banklari tomonidan zaruriy choralar ko'rib borilmoqda.

Tashriflar davomida o'tkazilgan yig'ilish bayonlarida tijorat banklariga jami **5 397** ta investitsiya loyihalari va belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati **121,9** trln. so'mni tashkil etadi.

Shundan **4 019** tasi investitsiya loyihalariga **34,8** trln. so'mlik bank kreditlari va xarajatlarini (*investitsiyalar va homiylik mablag'lari*) yo'naltirilishi belgilangan.

Tijorat banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, tijorat banklari tomonidan **1 767 ta** investitsiya loyihalariga **15,3 trln.**so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirildi.

Loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit mablag'lari manbalar bo'yicha tahlil qilinganda:

- o'z mablag'lari hisobidan **1 421 ta** loyihaga **6,0** trln.so'm;

- O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan **40 ta** loyihaga **5,6** trln.so'm;

- jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan **282 ta** loyihaga **3,2** trln.so'm miqdorida resurslar sarflangan.

Bundan tashqari, **24 ta** loyihani ishga tushirish uchun jami **428** mlrd.so'mdan ortiq miqdorda mablag'lar bank xarajatlari hisobiga amalga oshirilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida jami **1 306 ta loyihalar** (*shundan 1066 tasi bank kreditlari va xarajatlari hisobiga*) **ishga tushirilgan.**

Shuningdek, ajratilgan kredit mablag'larini iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti quyidagicha, xususan:

- sanoat sohasiga 815 ta loyihaga 11,7 trln.so'm;

- qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun 484 ta loyihaga 2,4 trln.so'm;
- xizmat ko'rsatish va servis sohasiga 468 ta loyihaga 1,2 trln.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan.

Bugungi kunda tashabbuskorlar tomonidan zaruriy hujjatlar va yetarli ta'minot taqdim qilinganda banklar tomonidan istiqbolli loyihalarga zaruriy kredit mablag'lari ajratilishi ta'minlanmoqda.